

# Navro'z bayrami munosabati bilan Uzbekistan Airways'dan chegirmalar

**2024 1 Mart**

Uzbekistan Airways 2024-yilning 21-martidan 24-martigacha barcha mahalliy aviaqatnovlar tariflariga 30% chegirma e'lon qiladi. O'zbekiston bo'ylab sayohat qiling va bayram kunlarini yaqinlaringiz bilan o'tkazing.

Aviachiptalarni [www.uzairways.com](http://www.uzairways.com) veb-saytida, mobil ilova orqali, Uzbekistan Airways Sales filialida yoki aviakompaniya agentlaridan xarid qiling.

Aksiyasining batafsil shartlari:

1. Sotish davri – 03.01.2024. - 24.03.2024;
2. Tashuv muddati - 21.03.2024. - 24.03.2024.
3. Taqdim etiladigan chegirma miqdori:
  - kattalar uchun tarifdan – 30%;
  - 2 yoshgacha va 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan salonda joy egallovchi bolalar uchun – bolalar tarifiga mos ravishda – 30% (bu holda, uni to'g'ri hisoblash uchun e'lon qilingan chegirma miqdori kattalar uchun tarifning 48% ni tashkil qiladi);
  - chegirma salonda joy egallamaydigan va 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun amal qilmaydi;
4. Aviachipta qaytarilganda/qayta bronlashtirilganda/qayta rasmiylashtirilganda tarifga taqdim etilgan chegirma aviachiptani qaytarish/qayta bronlashtirish/NO-SHOW uchun undiriladigan yig'implarga nisbatan qo'llanilmaydi. Bolalar uchun belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) undiriladi;
5. 2024-yil 21-martdan 24-martgacha parvozlarda uchun ilgari berilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, chegirma tarifga qo'llanilmaydi;
6. Chegirma bilan qisman foydalanilgan aviachiptalar qayta rasmiylashtirilgan/qayta bron qilingan taqdirda, qayta hisob-kitob aviachipta chiqarilgan sanada (ya'ni chegirma qo'llanilgan holda) amalga oshiriladi;

7. Aviatashuv muddati cheklanmagan (aviatashuvning amal qilish muddati qo'llanilgan tarif qoidalari bilan belgilanadi, aviachiptalarni e'lon qilingan berilgan jadval asosida rasmiylashtirishga ruxsat beriladi);
8. Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi, bolalarnikidan tashqari;
9. Chegirma e'lon qilingan barcha mahalliy aviaqatnovlarning individual ekonom va biznes-klass tariflari uchun amal qiladi.

Chegirmali aviachiptalarni rasmiy saytda, aviakompaniya agentlari va Toshkent shahri, Yakkasaroy tumani, Shota Rustaveli ko'chasi, 9-uy manzilida joylashgan Uzbekistan Airways Sales filialida xarid qilishingiz mumkin.

*Uzbekistan Airways O'zbekistondagi eng yirik aviakompaniya hisoblanadi. Aksiyadorlik jamiyati maqomiga ega. Uning aviaparkida Boeing 767/787, Airbus A320ceo/320neo/321neo/A330, L-410, ATR-72 kabi havo kemalar mavjud.*

*Yo'nalishlar tarmog'i va havo kemalar parkini doimiy ravishda kengaytirmoqda hamda ko'rsatilayotgan xizmatlar darajasini yaxshilaydi. Parvoz xavfsizligi esa aviakompaniya uchun doimo ustuvor vazifa bo'lib qoladi.*

*Uzbekistan Airways muntazam, charter va yuk tashuvchi aviaqatnovlarini hamda Uzbekistan Airways Express loukoster tizimi bo'yicha ham parvozlarni amalga oshiradi.*

*Uzbekistan Airways tarkibiga "Uzbekistan Helicopters" MChJ, "Uzbekistan Airways Technics" MChJ, "Catering" MChJ, "O'quv-mashq markazi" MChJ kabi kompaniyalar ham kiradi.*